

---

## O'QUVCHI YOSHLAR - IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHISI TO'LANBOY OTA SHOKIROV XONADONIDA

Xotira va qadrlash kuni arafasida Oltiariq tumanidagi 4-IDUM va 19-umumta'lim maktablari o'quvchilari Oqbo'yra qishlog'ida istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi To'lanboy ota Shokirov xonadonida bo'ldilar.

Ikkinchi jahon urushining tirik afsonalaridan biri bo'lgan To'lanboy ota yoshlarga urush qiyinchiliklari, urushdan keyingi og'ir yillar zahmatlarini so'zlab berdi.

Shuningdek, otaxon barchani bugungi dorilomon kunlarga shukronalar aytishga da'vat qilib, tinchlikning qadriga yetishga chorladi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-06 10:21:41